



UDK:801.8

Feruzaxon MURATKHODJAEVA,
Oriental universiteti dotsenti PhD
E-mail: fmuratkhodjaeva@gmail.com

Oriental universiteti dotsenti M.Boboyeva taqrizi asosida

INGLIZ VA O‘ZBEK MADANIYATLARIDA AYOL OBRAZINING LINGVOMADANIY MODELII

Annotsatsiya

Mazkur maqolada ingliz va o‘zbek tillarida ayol obrazining lingvomadaniy modeli qiyosiy va tizimli tahlil asosida yoritiladi. Tadqiqot jarayonida ayol obrazining shakllanishi va rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatgan tarixiy, diniy, ijtimoiy, madaniy hamda psixologik omillar keng ko‘lamda ko‘rib chiqiladi. Ingliz va o‘zbek madaniyatlariga xos lingvistik birliklar — frazeologizmlar, metaforalar, darajalash iboralari, zamonaviy konseptlar asosida ayol haqidagi tasavvurlar tahlil qilinadi. Maqolada ingliz madaniyatida ayol obrazining individualizm, shaxsiy mustaqillik, ijtimoiy faollik va kasbiy o‘zini namoyon etish bilan bog‘liq jihatlari, o‘zbek madaniyatida esa ayolning ona, oila va jamiyatning ma’naviy tayanchi sifatidagi talqini ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: Ayol obrazi, lingvokulturologiya, qiyosiy tahlil, ingliz va o‘zbek tillari, milliy mentalitet, frazeologizm, metafora, madaniy qadriyatlar, gender stereotiplari, ona konsepti, individualizm.

ОБРАЗ ЖЕНЩИНЫ В ЛИНГВОКУЛЬТУРНОЙ МОДЕЛИ АНГЛИЙСКОЙ И УЗБЕКСКОЙ КУЛЬТУР

Аннотация

В данной статье на основе сравнительного и системного анализа рассматривается лингвокультурная модель образа женщины в английском и узбекском языках. В ходе исследования всесторонне анализируются исторические, религиозные, социальные, культурные и психологические факторы, оказавшие влияние на формирование и развитие образа женщины. Лингвистические единицы, характерные для английской и узбекской культур, такие как фразеологизмы, метафоры, оценочные выражения и современные концепты, используются для анализа представлений о женщине. В статье раскрываются особенности образа женщины в английской культуре, связанные с индивидуализмом, личной независимостью, социальной активностью и профессиональной самореализацией, а также интерпретация женщины в узбекской культуре как матери, духовной опоры семьи и общества.

Ключевые слова: Образ женщины, лингвокультурология, сравнительный анализ, английский и узбекский языки, национальный менталитет, фразеологизм, метафора, культурные ценности, гендерные стереотипы, концепт материнства, индивидуализм.

THE LINGUOCULTURAL MODEL OF THE FEMALE IMAGE IN ENGLISH AND UZBEK CULTURES

Annotation

This article examines the linguocultural model of the female image in English and Uzbek languages through comparative and systematic analysis. The study explores a wide range of historical, religious, social, cultural, and psychological factors that have influenced the formation and development of the female image. Linguistic units characteristic of English and Uzbek cultures—such as phraseological expressions, metaphors, gradational constructions, and modern concepts—are analyzed to reveal cultural perceptions of women. The article demonstrates that in English culture the female image is largely associated with individualism, personal independence, social activity, and professional self-realization, whereas in Uzbek culture the woman is primarily conceptualized as a mother and the moral and spiritual pillar of the family and society.

Key words: Female image, linguoculturology, comparative analysis, English and Uzbek languages, national mentality, phraseological units, metaphor, cultural values, gender stereotypes, mother concept, individualism.

Kirish. Insoniyat tarixida ayol obrazi jamiyatning eng qadimiy madaniy arxetiplaridan biri bo‘lib, u xalqning dunyoqarashi, qadriyatlarini, ijtimoiy munosabatlari va axloqiy me‘yorlari bilan uzviy bog‘liq holda shakllangan murakkab lingvomadaniy tizimni tashkil etadi. Ingliz va o‘zbek madaniyatlarida ayol obrazining shakllanishi ham ko‘p qatlamli tarixiy, diniy, ijtimoiy, psixologik omillar ta’siri ostida rivojlangan bo‘lib, har ikki tilda ayolga doir lingvistik birliklar – frazeologizmlar, metaforalar, darajalash iboralari, sifatlashlar, qadimiy timsollar va zamonaviy konseptlar yordamida o‘zining lingvomadaniy modelini yaratgan. Bu model nafaqat ayol haqidagi tasavvurlar yig‘indisi, balki butun milliy mentalitetning lingvistik ko‘zgusidir.

Ingliz madaniyatidagi ayol obrazi, avvalo, G‘arbning individualistik qadriyatlar tizimi, protestant axloqi, Viktoriya davri ijtimoiy ideallari, zamonaviy liberal g‘oyalar va gender tengligi jarayonlari bilan shakllangan. Ingliz tilidagi “proper

lady”, “gentlewoman”, “first lady”, “career woman”, “independent woman”, “English rose” kabi birliklar ushbu madaniyatning ayolga oid qadriyatlarini aniq aks ettiradi. Bu iboralarda ayol ko‘pincha o‘ziga ishongan, o‘z qadr-qimmatini biladigan, mustaqil qaror qabul qiladigan, jamiyat hayotida faol ishtirok etadigan shaxs sifatida tasvirlanadi. Ayniqsa, “English rose” metaforasi ingliz ayolining nafisligi, tabiiy go‘zalligi, odobli va bosiqliqi haqidagi milliy idealni ifodalaydi. Bunda atirgul ingliz madaniyatida nafaqat go‘zallik ramzi, balki milliy identitetning muhim timsoli sifatida talqin qilinadi. Shu bois bu metafora lingvomadaniy jihatdan juda qadimiy va boy semantik qatlamga ega.

Bundan farqli ravishda, o‘zbek madaniyatidagi ayol obrazi Sharqona qadriyatlar, islomiy axloqiy me‘yorlar, an’anaviy patriarxal oilaviy struktura va jamiyatning kollektiv ruhiyati bilan shakllangan. O‘zbek tilida ayolning eng asosiy lingvomadaniy modeli – ona modelidir. “Ona – muqaddas”,

“ona duosi”, “ona yurti”, “ona tili” kabi birliklar o'zbek xalqining ayolga nisbatan yuksak hurmatini aks ettiradi. O'zbek madaniyatida ayol nafaqat biologik ona, balki jamiyatning ma'naviy tayanchi, oilaning barakasi, xonadonning himoyachisi sifatida talqin qilinadi. Shuning uchun “uy qutisi”, “fayz manbai”, “oqila ayol”, “halima ayol”, “nazokatli kelin” kabi iboralar o'zbek tilidagi ayol obrazining madaniy idealiga aylandi. Bu iboralarda ayolning jamiyatdan kutilyotgan fazilatlar – ibo, hayo, muloyimlik, odob, halollik, sabr-toqat, oilaparvarlik, farzandparvarlik kabi fazilatlar ustuvor o'rin tutadi.

Ingliz va o'zbek madaniyatlaridagi ayol obrazining lingvomadaniy modeli o'rtasida ham o'xshashliklar, ham keskin farqlar mavjud. Umumiy jihatlar sifatida ayolning go'zallik, nafasat, mehribonlik, uy-g'arov barqarorligini saqlovchi kuch sifatida tasvirlanishi aytish mumkin. Masalan, ingliz tilida “woman of grace”, “caring mother” iboralari mavjud bo'lsa, o'zbek tilida “munis ayol”, “mehribon ona” kabi birliklar uchraydi. Bu o'xshashliklar insoniyat tafakkurining universal metaforik modellarida yashiringan bo'lib, ular “Ayol — mehr manbai”, “Ayol — go'zallik”, “Ayol — nafislik” kabi konseptlarga tayanadi.

Biroq lingvomadaniy farqlar ikki madaniyatning tarixiy taraqqiyoti bilan belgilanadi. Ingliz madaniyatida ayolning shaxsiy mustaqilligi muhim qadriyat hisoblanadi. Bu jarayon Britaniyada ayollar harakatining 19–20-asrlarda kuchayishi, ayollarning siyosiy huquqlari uchun kurashi, mehnat bozorida faol ishtirok etishi bilan bog'liq. Natijada ingliz tilida “self-made woman”, “working mom”, “empowered woman”, “businesswoman”, “iron lady” kabi iboralar paydo bo'lgan. Ayniqsa, “Iron Lady” metaforasi Margaret Tetcher shaxsiga borib taqaladi va ayolning siyosiy qat'iylik, kuch, iroda timsoli sifatida talqin qilinishiga zamin yaratadi. Bu model ingliz madaniyatining gender idealarida muhim burilish yasagan.

O'zbek madaniyatida esa ayolning mustaqilligi nisbatan yangi ijtimoiy hodisa bo'lib, tarixan ayolning jamiyatdagi o'rni ko'proq oilaviy mas'uliyat, xonadonni boshqarish, farzand tarbiyasi bilan bog'langan. Shu sababli avlodlar davomida “ayolning bosh vazifasi – oila”, “ayolning yo'li nozik” kabi iboralar jamiyatda mavjud bo'lib kelgan. Biroq mustaqillik yillaridan keyingi modernizatsiya jarayonlari, ayollarning siyosiy va iqtisodiy hayotda faollashuvi natijasida yangi lingvomadaniy model paydo bo'ldi. Masalan, “lider ayol”, “tadbirkor ayol”, “faol ayol”, “olim ayol”, “davlat rahbari ayol” kabi iboralar ayolning yangi ijtimoiy rolini aks ettiradi.

Ayol obrazining lingvomadaniy modelini shakllantiruvchi asosiy manbalardan biri – folklor va og'zaki ijoddir. Ingliz ertaklarida ayollar ko'pincha malika, sehrargar, peri, qirolicha obrazlarida beriladi. Malika obrazi nafislik, joziba, muloyimlik timsoli bo'lsa, sehrargar ayol – yovuz, makkor, fitna timsolidir. Bu ikki qutbli tasvir ingliz tilidagi ba'zi iboralarda ham o'z aksini topgan: “wicked witch”, “fairly godmother”, “princess-like girl”. O'zbek ertaklarida esa ayolning asosiy obrazlari – dono qiz, mehribon ona, aqli kelin, go'zal yor yoki yovuz kampir kabi timsollar orqali ifodalanadi. Bu tasvirlar tilga ham ko'chgan bo'lib, “dono ayol”, “o'tkir qiz”, “mehribon ona”, “jodugar kampir” kabi iboralar orqali yashab kelmoqda.

Ingliz va o'zbek lingvomadaniy modellari orasidagi farqlardan yana biri ayolning jamiyatdagi baholanish mezonlari bilan bog'liqdir. Ingliz madaniyatida ayolning qadr-qimmatini ko'pincha shaxsiy fazilatlar, iqtidor, malaka, mustaqil fikrlay olishi orqali baholanadi. O'zbek madaniyatida esa ayolning obro'-e'tibori ko'proq oilaviy roli, odobi, ibosi,

muomala madaniyati bilan bog'liq. Bu farq lingvistik birliklar darajasida ham seziladi: inglizcha “smart woman”, “talented girl” kabi iboralar ayolning intellektual fazilatini ifodalasa, o'zbek tilidagi “iboli qiz”, “odobi bor ayol” kabi birliklar axloqiy jihatga urg'u beradi. Ayol obrazining lingvomadaniy modeli har ikki tilda ham estetik, axloqiy, ijtimoiy, ruhiy va psixologik qirralari bilan qamrab olingan bo'lsa-da, ingliz madaniyatida ayolning faolligi, tashqi dunyo bilan munosabati, kasbiy imkoniyatlari ko'proq ta'kidlanadi. O'zbek madaniyatida esa ayolning maishiy-milliy hayotdagi faoliyati, uy bekasi sifatidagi o'rni, oilaviy qadriyatlar markazida bo'lishi ustuvor o'rin tutadi.

Birinchidan, ingliz va o'zbek madaniyatlarida ayol obrazining lingvomadaniy modeli turlicha qadriyatlar tizimiga tayanishi aniqlandi. Ingliz madaniyatida ayol obrazi ko'proq individualistik yondashuv asosida shakllanib, mustaqillik, shaxsiy erkinlik, kasbiy muvaffaqiyat va ijtimoiy faollik kabi konseptlar bilan uyg'unlashadi. O'zbek madaniyatida esa ayol obrazi asosan kollektiv va an'anaviy ijtimoiy modelga tayanib, onalik, oilaparvarlik, ibo-hayo, sabr, ma'naviy tayanch va “uy qutisi” kabi konseptlar orqali markazlashadi. Shunga qaramay, har ikki madaniyatda ayol obrazining universal jihatlar ham mavjud bo'lib, go'zallik, mehr, nafislik va mehribonlik kabi umuminsiy qadriyatlar frazeologik va metaforik birliklarda mushtarak aks etishi kuzatildi.

Ikkinchidan, ayollar bilan bog'liq frazeologizmlar mulohazat jarayonida katta kommunikativ-pragmatik salohiyatga ega ekan asoslandi. Ular baholash, tavsiflash, me'yor belgilash, stereotiplarni mustahkamlash yoki yumshatish, emotsional ta'sir ko'rsatish, ziddiyatni boshqarish, nasihat va tanbeh berish, shuningdek, stilistik bezak yaratish kabi funksiyalarni bajaradi. Ayniqsa, ingliz tilida ko'plab gender iboralari ironik-kinoyaviy ohangda pragmatik “yumshatish” vositasi sifatida ishlatilsa, o'zbek tilida ayollar bilan bog'liq iboralar ko'proq bevosita axloqiy baho va didaktik mazmunga yo'naltirilgani ko'rindi. Bu holat mulohazadagi ijtimoiy masofa, samimiylig darajasi va nutqiy strategiyalarni belgilashda frazeologizmlarning roli juda kuchli ekanini tasdiqlaydi.

Uchinchidan, genderga yo'naltirilgan iboralarni tarjima qilish masalasi lingvistik ekvivalentlikdan tashqari, madaniy konnotatsiya, pragmatik ohang, stereotipik baho va nutqiy vazifa kabi omillarni ham majburiy hisobga olishni talab etishi ko'rsatildi. Tadqiqotda funksional ekvivalentlik, adaptatsiya, konnotativ moslashtirish, metaforik qayta yaratish, deskriptiv tarjima, semantik kengaytirish-toraytirish, pragmatik moslashuv, kompensatsiya hamda gender sezgir tarjima kabi strategiyalar gender iboralarini adekvat tarjima qilishning asosiy mexanizmlari sifatida asoslandi. Eng muhim xulosa shundaki, bunday iboralarni so'zma-so'z tarjima qilish ko'pincha ma'no yo'qolishi, madaniy “begonalashuv” yoki pragmatik keskinlikning noto'g'ri kuchayishiga olib keladi; shu bois tarjimada iboraning kommunikativ vazifasi va madaniy yuklamasi ustuvor mezon bo'lishi lozim.

Xulosa. Ingliz va o'zbek madaniyatlarida ayol obrazining lingvomadaniy modeli nafaqat tilning leksik-semantik tizimini, balki millatning mentalitetini, qadriyatlar tizimini, tarixiy tajribasini, genderga oid stereotiplar shaklini ham aks ettiradi. Inglizcha model individualistik, modernistik, tenglikka asoslangan bo'lsa, o'zbekcha model oilaparvarlikka, ma'naviyatga, jamiyatning axloqiy me'yorlariga tayangan. Bu ikki modelning qiyosiy o'rganilishi frazeologiyaning lingvokulturologik salohiyatini anglashga, ayol obrazining madaniy dasturlar orqali shakllanish mexanizmlarini ochib berishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Karimov, B. (2019). O'zbek ayol obrazining adabiy portreti. Adabiyot va san'at jurnali, №2, 45–49. (2019; 45-49) bkarimov@mail.uz

2. Holmes, J. (2018). *An Introduction to Sociolinguistics*. Routledge. (2018; 113–119) janet.holmes@vuw.ac.nz
3. Wodak, R. (2017). *Gender and Discourse*. SAGE Publications. (2017; 88–92) r.wodak@lancaster.ac.uk
4. Rahmatova, Z. (2021). Til va gender: lingvistik yondashuvlar. *Filologiya ilmiy-amaliy jurnali*, №3, 50–55. (2021; 50–55) zrahmatova@philol.uz
5. Cameron, D. (2015). *The Myth of Mars and Venus*. Oxford University Press. (2015; 101–106) deborah.cameron@ling.ox.ac.uk
6. Usmonov, A. (2022). Adabiy matnda ayollar obrazi: lingvokulturologik tahlil. *O'zbek tilshunosligi*, №4, 74–79. (2022; 74–79) ausmonov@til.uz
7. Muratxodjayeva, F. X. (2025). Inson ruhiyatini aks ettiruvchi konseptlar va ularning voqelanishi. *Latin American journal of education*, 5(7), 783-788.
8. Muratxodjayeva, F. X. (2025). Ayollar obrazining madaniy va ijtimoiy tarmoq lingvokulturologik asosli tadqiq etish. *Continuing education: international experience, innovation, and transformation*, 1(2), 41-45.
9. Muratxodjayeva, F. X. (2026). Inson ruhiyatini ifodalovchi birliklarning milliy-madaniy xususiyatlari. *Latin American journal of education*, 6(1), 204-209.
10. Azatbayevna, R. M., & Muratxodjayeva, F. X. (2025). O'zbek va ingliz tillaridagi realiyalarni tarjimada izchil uzatish: pragmatik va semantik yondashuvlar asosida tahlil. *Introduction of new innovative technologies in education of pedagogy and psychology*, 2(4), 48-52.